

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/5 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА  
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ  
САМАРКАНДСКОГО СОГДА ..... 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрам о'g'li*  
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ..... 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*  
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ  
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*  
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI .....32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*  
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*  
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*  
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*  
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ  
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*  
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF  
UZBEKISTAN ..... 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*  
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ  
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ..... 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*  
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH  
USULLARI VA AFZALLIKLARI ..... 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAMLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI .....	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277



---

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK - USLUBIJ TA'MINOTI .....	316-322



13.00.00- Педагогика фанлари

**Omarova Gavhar Sadikovna**

Buxoro Davlat Universiteti "Yuridik, ijtimoiy-siyosiy  
fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

### **HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK- PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada huquqiy fanlarni o'qitishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlarining tahlili amalga oshirilgan. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishi siyosiy islohotlarning to'g'ri taxlil qilinishining garovidir. Jarayon ta'lim sohasida amalga oshiriladigan yoshlar tarbiyasi bilan ham bog'liqdir.

**Kalit so'zlar:** huquqshunoslik, didaktik o'yin, ta'lim, tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, o'yin mashg'ulotlari.

---

**Omarova Gavhar Sadikovna**

Lecturer at the Department of "Legal, socio-political sciences"  
of the Bukhara State University

### **PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EDUCATIONAL DIFFERENTIATION IN THE TEACHING OF LAW: THE EXAMPLE OF DIDACTIC GAMES**

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of the use of a differentiated approach in teaching legal subjects. The rise of legal consciousness and legal culture in the society is the guarantee of correct analysis of political reforms. The process is also related to youth education, which is carried out in the field of education.

**Key words:** jurisprudence, didactic game, education, training, legal awareness, legal culture, game training.

---

**Омарова Гавхар Садиковна**

Преподаватель кафедры "Юридических, социально-политических наук"  
Бухарского государственного университета

### **ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УЧЕБНОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ В ОБУЧЕНИИ ПРАВУ: НА ПРИМЕРЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР**

**Аннотация.** В данной статье анализируются педагогико-психологические аспекты использования дифференцированного подхода в обучении юридическим предметам. Рост правосознания и правовой культуры в обществе является залогом правильного анализа политических реформ. Процесс также связан с воспитанием молодежи, которое осуществляется в сфере образования.

**Ключевые слова:** правоведение, дидактическая игра, воспитание, обучение, правосознание, правовая культура, игровое обучение.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N38>

**Kirish.** Demokratik davlat va jamiyat yetukligining asosiy mezonlaridan biri bu fuqarolarning huquqiy ong hamda madaniyat darajasidir. Bu o'z navbatida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri bo'lishi qatorida, huquqbuzarliklarning oldini olish sohasidagi faoliyatning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'lik bo'lib, mazkur protsedura mashg'ulot jarayonlarida amalga oshiriladi.

Huquq darslarida ta'limni tabaqalashtirish huquqiy munosabatlarni modellashtirish davomida qo'llaniladigan ta'limning innovatsion faol metodini o'zida aks ettiradi. Bunda proksimal rivojlanish zonasi (ZPD-o'rganishni amalga oshiradigan zona) ni yaratish muhimdir. Ya'ni huquqiy bilimlarni egallagan o'quvchi-talaba o'zi qila oladigan va hali qila olmaydigan malakalar o'rtasida joylashgan hudud. Metakognitiv (rejalashtirish, monitoring, baholash) faol faoliyat talabalarning ijodiy imkoniyatlarini oshirib, ularning huquqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shu jihatlari bilan tanlangan mavzu dolzarb hisoblanadi.

O'quv-uslubiy jarayonni didaktik ta'minlashning muhim shartlaridan biri o'yin vaziyatlarini vujudga keltirish va unga kirish hisoblanadi. Ma'lumki, kishilarning ehtiyoji va qiziqishlariga muvofiq ularning faoliyati ham xilma-xil bo'ladi. Bu faoliyatni uch asosiy tur: mehnat, o'qish va o'yinga ajratish mumkin. Har qanday o'yin shaxsning ijtimoiylashuvi, madaniylashuvi yoki jamoa bo'lib yashash qoidalarini o'zlashtirishining yetakchi shakli hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "O'yin va hayot ajralmasdir. O'yinlar bolalarga bo'lgan mehr-muhabbat singari, basharti pedagogik mehnat texnologiyasi bilan bolalar jamoasining mehnat va hordig'ini uyushtirish masalasi bilan birlashmas ekan, o'z holicha sariq chaqaga arzimaydi"[3].

Bolalar o'z faoliyatida kattalarga xos bo'lgan ijtimoiy hayotning deyarli barcha tomonlarini o'zida aks ettiradi, hatto o'yinlar har bir millatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan ham mustahkam bog'liqdir. Zero, avloddan-avlodga o'tadigan eng muhim milliy xususiyatlar ham o'yin orqali bolaga singdiriladi.

O'yinlarning ildizi juda uzoq va qadim zamonlarga borib taqaladi. Jahonga mashhur buyuk mutafakkir allomalarimiz Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino asarlarida ham bolalar o'yinlariga taalluqli ma'lumotlar ko'p uchraydi. Jumladan, M.Qoshg'ariyning "Devonu-lug'atit turk" asarida o'yinlarning turlari, yo'nalishlari haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud[4]. Allomaning fikricha, o'yinlar madaniy-ma'rifiy qadriyatlarini avloddan-avlodga o'tkazuvchi vositadir.

Qadim zamonlardan buyon yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, ota-bobolarimiz tomonidan to'plangan boy tajribalarni kelajak avlodga yetkazishda turli o'yinlardan unumli foydalanilgan. Chunki o'yin bolalar hayotida yetakchi faoliyat sanaladi. O'yin orqali bolalar psixologiyasi rivojlanadi va asta-sekin faoliyatning boshqa turlariga o'tish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu masalada didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ma'lumki, didaktik o'yinlarning xususiyati ta'limga, o'qitish va o'qishga aloqador masalalarni dars va darsdan tashqari jarayonda o'yin asosida, uning qoidalariga muvofiq olib borishdan iborat. Shuning uchun ham o'tmishdagi va hozirgi zamon psixolog, pedagog olimlari

o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida didaktik o'yinlardan foydalanish masalasiga jiddiy e'tibor berganlar.

O'quvchilarning o'yin faoliyatida didaktik o'yinlarning tutgan o'rniga psixologlar va pedagoglar tomonidan yuqori baho berilishiga qaramay, bu o'yinlardan qanday foydalanish haqida umumiy to'xtamga kelingan emas. Pedagogik tadqiqotlarda didaktik o'yinlarga munosabat turlicha. Bunga o'yinlarning murakkabligi va ko'p qirrali ekanligi asosiy sababdir. Ayrim mualliflar didaktik o'yinlarni o'quvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyati sifatida baholasalar, boshqalari metod, uchinchilari tatbiq, to'rtinchilari esa ta'limning shakli, deb hisoblaydilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida: "O'yin – ko'ngilochar, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot", deb ta'riflangan [5]. Ensiklopedik lug'atda esa "...bolalar tarbiyasi, ta'limi hamda rivojlanishida ularni kelgusi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega", deb yozilgan [6]. Bular o'yin haqidagi umumiy ta'riflar bo'lib, didaktik o'yinlarning mohiyati haqida mutlaqo fikr yuritilmagan.

Didaktik o'yinlar borasidagi qo'yidagi fikrlar diqqatga sazovor: "O'qitishda foydalaniladigan didaktik o'yinlar o'quvchilarni bilimlarga qiziqtiruvchi, bilish doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, shuningdek, o'quvchilarni faollashtirish omillaridan biri hisoblanadi. Chunki o'yinda o'quvchi faol fikr yuritadi, o'zida ijobiy erkinlik sezadi" [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Didaktik o'yinlardan foydalanishda quyidagi metodik talablarni e'tiborga olish talab qilinadi:

1. O'yinlardan dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Buning uchun o'quvchilarni qiziqtiradigan va ularning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlarni tanlab olish zarur.

2. Darslar jarayonida o'yinlarga 15-20 daqiqa vaqt, bo'limlar bo'yicha yirik mavzularni umumlashtirish va takrorlashda esa butun bir dars soatini ajratish mumkin.

3. Har bir o'yinni o'tkazishda avval unga puxta tayyorgarlik ko'rish hamda dars materiallarining mazmuni bilan didaktik o'yinlarning uzviy bog'liqligiga e'tibor berish lozim.

O'yin vaqtida o'quvchilar o'zaro bellashadilar va o'zlarining topqirliklarini namoyon qiladilar. O'yinda faol qatnashgan va uning shartini to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi, ya'ni darsda baholanadi, sinfdan tashqari ishlarda esa taqdirlanadi [8].

O'yin – bolalarning suyak-suyagiga singib ketgan faoliyat. Bu faoliyat turlariga qarab voqelikni, hayotni o'zida aks ettiradi. Didaktik o'yin ta'lim vositasi bo'lib, u orqali muayyan ta'limiy maqsadlarga erishiladi, ya'ni o'rganilgan o'quv materiali mustahkamlanadi hamda chuqurlashtiriladi.

Didaktik o'yinlar shaxsni ijodkorlikka undaydi. Chunki har bir o'yin, uning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o'yinlar tarkibida tirishqoqlik, matonatlilik, boshlagan ishini oxirigacha etkazish singari eng zarur irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

Ruhshunos olim M.Vohidovning ta'kidlashicha, "O'yin faoliyati bolalarni insoniyat ijtimoiy tajribasini egallashining faol shakliga, ya'ni ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi, odam ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan, ma'lum malaka,

ko'nikma hamda elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Bularga esa bola faqat o'yin faoliyati tufayligina erishadi" [9].

**Tahlil va natijalar.** O'quvchilar o'yinlar orqali faoliyatning boshqa turlari (mehnat, o'quv manbalarini o'zlashtirish)ga o'tadilar. Natijada ularning hayotiy tasavvurlari kengayib, ijodiy faoliyati o'sib boradi.

Akademik litsey o'quvchilarining o'spirinlik davrini boshidan kechirayotgan davri, ya'ni psixologiyasining o'ziga xosligi shundaki, u hozirgi vaqti, buguni va ertasini kelajak nuqtai nazaridan, istiqbolga nazar bilan qabul qiladi. Aynan shu davrga kelib, o'spirin turli kasblarga qiziqish bildiradi, o'zining kelajakda kim bo'lishini tasavvur qila boshlaydi. Demak, o'z-o'zini professional nuqtai nazardan ajratish, tasavvur qilish o'spirinlikning eng muhim yangiligidir. E.A.Klimov (1996 y) professional taraqqiyotning asosiy bosqichlarini ajratar ekan, alohida "**optatsiya**" (lotinchada: ortatio – xohish, tanlov) bosqichini belgilaydi va uning xarakterli tomoni – odam tomonidan professional taraqqiyot bosqichining tanlanishidir, deb e'tirof etadi. Optatsiya bosqichi 11-12 yoshdan to 14-18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi [11]. Bu davrda aynan boladagi psixologik o'zgarishlar: qiziqish va professional yo'nalishning shakllanishi didaktik o'yinlardagi qoidalarga amal qilgan holda shakllanishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasida NDPI qoshidagi 3-sonli, Toshkent shahar TDTU qoshidagi 5-sonli va Toshkent viloyati Qibray tumanidagi akademik litseylarda olib borilayotgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, "Huquqshunoslik" fanini o'qitishda "Parlament", "Jazo" didaktik va rolli o'yinlardan foydalangan holda sud jarayonlarini tashkil etish natijasida o'quvchilardagi qiziqishning ortishi, advokatlik, prokurorlik va sudyalik kasblariga nisbatan munosabatlarining o'zgarganligi kuzatildi. Shuningdek, har qanday qilmish jazosiz qolmasligini, xalqimizdagi "Qing'ir ishning qiyig'i, qirq yildan keyin ham chiqadi", degan hikmatli so'zning lug'aviy ma'nosini o'quvchilar ongli ravishda tushunib etganliklarining guvohi bo'ldik.

Bola shaxsining tarkib topishida o'yinlarning tutgan o'rni haqida ruhshunos olimlarning ajoyib tadqiqotlari va qimmatli fikrlari mavjud. Jumladan, L.S.Vigotskiy, V.I.Leontev, D.B. Elkonin, S.L. Rubinshteyn va L.I.Bojovichlar o'z ilmiy ishlarida bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Psixologlar o'yinlarga bola shaxsida yangi fazilat va sifatlarni shakllantiruvchi, ularning umumiy o'sishiga yordam beruvchi faoliyat turi sifatida qaraydilar. Masalan, L.S.Vigotskiy o'yin orqali bolalar kelajak faoliyati uchun zarur bo'ladigan axloqiy sifatlarni tarbiyalanadi, deb hisoblaydi. O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda o'yinlarning tutgan o'rni shundaki, u o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi va ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi [10].

Huquq fanlarini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar mas'uliyatini oshiradi, natijada ular o'ziga topshirilgan vazifani bajarish imkoniyatlarini qidirib topishga harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchi inson faoliyatining yuqori pog'onasiga o'tadi, o'zaro hamkorlik, bir-biriga o'zaro yordam munosabatlarini o'rganadi. Kishilarning o'zaro hamkorligi zamirida esa bolaning axloqiy fazilatlarini shakllanadi. Shuni ta'kidlash joizki, didaktik o'yinlar orqali o'quvchilardagi muloqotga kirishish ko'nikmalarining shakllanishi va jamoada ishlash malakalarining rivojlanishi tezlashadi.

Juda ko'p mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalar orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnatish olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida sheriklarining holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgaralarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, "birov"ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* holatini keltirib chiqaradi [11].

Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida, akademik litseylarda biz huquqshunoslik fani seminar darslarida didaktik o'yinlardan foydalandik va natijada o'quvchilarda qiziqish, talabchanlik, bilimga chanqoqlik xususiyatlari vujudga keldi, jamoada o'z fikrini isbotlashi, shuningdek, o'z ilmiy ta'sir kuchini aniqlashiga muvaffaq bo'ldi.

O'yinning tarbiyaviy ahamiyati haqida taniqli ruhshunos va pedagoglarning qimmatli fikrlari mavjud. Jumladan, S.P.Rubinshteynning ko'rsatishicha, o'yin bolani hayotga tayyorlash uchun xizmat qiladi, o'yin jarayonida bola ruhiyatining barcha qirralari, mulohaza qilishi, qiziqishi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari tarbiyalanadi [12].

P.P.Blonskiyning ta'kidlashicha, o'yin bola faoliyatining asosiy turidir. O'yin jarayonida bola hayotini ko'rib va unga ijodiy yondashib, o'z kuchini mashqlantiradi, mo'ljalga olish qobiliyatini o'stiradi [13].

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali bolalar faoliyatining ikki asosiy turi: o'quv va o'yin faoliyati birlashtiriladi [14]. buning natijasida o'quvchilarga ta'lim berish ishlari osonlashib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'quv dasturlari talablarini hisobga olish imkoniyatlari yaratiladi. Ta'limda bolalarning yosh xususiyatlari va ichki imkoniyatlariga muvofiq ish olib borilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Tajribalardan ma'lumki, bunday holatlarda ilmiy bilimlar yaxshi o'zlashtiriladi. Keyingi bosqichga qadam qo'ygan har bir o'quvchi ta'lim muassasalarida o'zlarini erkin tutishga harakat qiladi, o'ziga bo'lgan ishonchni, bilimga chanqoqligini va bilimli ekanligini ko'z-ko'z qilishga harakat qiladi. Shuningdek, bilimlarni o'zlashtira olishiga ishonadi, o'zini boshqalardan kamsitmaydi. Z.I.Kamikova: "...agar o'quvchi bilimlarni o'zlashtirishda qiynalsa, unda o'qishga nisbatan qiziqish pasayib ketadi va ta'lim muassasasiga nisbatan salbiy munosabat vujudga keladi. Bilimlarni o'zlashtirishning muhim sharti uni tushuntirishdir"[14].

M.G.Davletshinning fikricha, yangi bilimlarni tushunish mavjud bilimlar bilan yangi o'rganilayotgan bilimlarni bog'laydigan murakkab aqliy jarayon orqali amalga oshiriladi [15].

Nazariy bilimlarni o'rganishda turli metod va texnologiyalardan foydalaniladi. Nazariy bilimlarni amaliy tahlil etishda esa, biz didaktik o'yinlardan foydalanishni maqsad qilib oldik. Ta'kidlash joizki, akademik litseylarda olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida didaktik o'yinlar orqali o'quvchi o'ziga bo'lgan ishonchini sinashga muvaffaq bo'ladi. Nazariyani amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Jamoalarda nafaqat o'z fikrini bildirishni, balki o'z fikrini himoya qilish va isbotlash, psixologik muloqot o'rnatish va, albatta, tinglash qobiliyatlarini vujudga keltiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi dars jarayoniga didaktik o'yinlarni tatbiq etishidan oldin, o'quvchilardagi kuzatilayotgan psixologik davr o'zgarishlarini, shuningdek, dars jarayonida o'quvchida kechayotgan emotsional ruhiy holatni inobatga olgan holda o'yinlarni tanlash va o'yinlardagi ijro rollarini taqsimlashi zarur.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, 2021. "O'zbekiston". - B. 458.
2. O'zbekistonda 2022 yili kambag'allar soni qisqargani ma'lum qilindi. <https://kommers.uz/ozbekistonda-2022-jili-kambagallar-soni-qisqargani-malum-qilindi-25.01.2023>).
3. Захарченко Г.Г. Сюжетно-ролевые игры в изучении основ экологии (10-класс) // Биология в школе. №3; с.35-38.
4. Қошғарий М. Девону-луғатит турк. 3 том //Т.; Узфанакоднашр, 1960.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати - Т.; Фан, 1976-632 б.
6. Энциклопедик луғат. 2 том-Т.; Ўзбек совет энциклопедияси, бош редакцияси 1990. 466 б.
7. Абдуғаниев Е., Назаров У., Дидактик ўйинлар. // Совет мактаби, 1990. №2, 42-45 б
8. Абдурахмонов М. Табиий география таълимида дидактик ўйинлардан фойдаланиш методикаси. Ном.дисс.Т.: 2001.
9. Воҳидов М. Болалар психологияси.Т.: Ўқитувчи. 1982. 120 б.
10. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. –М.: Просвещение, 1956. 86 с.
11. Каримова В. Психология.-Тошкент, 2002. 165 б
12. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии.-М. Педагогика, 1959 231 с
13. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения.-М.:1995. -78 с.
14. Калмыкова З.И. Психологические принципы развивающего обучения.-М.:Знание, 1989 48 с.
15. Давлетшин М.Г. Психология технических способностей школьников. -Т.: Фан, 1971, - с-176

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).